



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tizimi

Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li –

Samarqand davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: lochinbek8828@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-4471-3195>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalar tizimi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi va amaliy jihatdan taqdim etiladi. Tadqiqot muammosi shundan iboratki, mahalliy pedagogika amaliyotida shakl, metod va vositalarni pedagogik liderlik kompetensiyasi bloklari bilan maqsadli bog'lovchi yagona tizim mavjud emas. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil va sintez qilish, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil hamda modellashtirish metodlaridan foydalanildi. O'qitish shakllari (frontal, guruh, juftlik, individual, loyihaviy, aralash) va metodlar (transformatsion, distributsion, muammoli, hamkorlikka asoslangan, loyihaga asoslangan, refleksiv va raqamli o'qitish) tizimli tasniflanib, ularning pedagogik liderlik kompetensiyalariga ta'siri tahlil qilinadi. Muallif tomonidan shakl-metod-vosita integratsion matritsasi har bir kompetensiya bloki uchun eng samarali kombinatsiyalar tizimi ilk bor taqdim etiladi. Maqola natijalari dissertatsiyaning integrallashgan metodik tizimida shakl, metod va vositalarni optimal tanlash va qo'llash uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'qitish shakllari, o'qitish metodlari, vositalar, pedagogik liderlik, transformatsion o'qitish, distributsion o'qitish, refleksiv o'qitish, EFL o'qituvchisi, integratsion matritsa.

Система форм, методов и средств развития компетенций педагогического лидерства будущих учителей английского языка

Аннотация. В данной статье теоретически обосновывается и практически представляется система форм, методов и средств, применяемых для развития компетенций педагогического лидерства будущих учителей английского языка. Проблема исследования заключается в отсутствии в отечественной педагогической практике единой системы, целенаправленно связывающей формы, методы и средства с блоками компетенций педагогического лидерства. В качестве методологии использованы анализ и синтез научной литературы, систематизация, сравнительный анализ и метод моделирования. Шесть форм обучения и семь методов трансформационное, дистрибутивное, проблемное, кооперативное,

проектное, рефлексивное и цифровое обучение систематически классифицируются с точки зрения их влияния на компетенции педагогического лидерства. Впервые предложена интеграционная матрица форм-методов-средств, предоставляющая оптимальные комбинации для каждого блока компетенций. Результаты статьи служат практической основой для оптимального выбора и применения форм, методов и средств в интегрированной методической системе диссертации.

Ключевые слова: *формы обучения, методы обучения, средства, педагогическое лидерство, трансформационное обучение, дистрибутивное обучение, рефлексивное обучение, учитель английского языка, интеграционная матрица.*

The system of forms, methods and tools for developing pedagogical leadership competencies in future english language teachers

Annotation. *This article theoretically grounds and practically presents the system of forms, methods, and tools employed for developing pedagogical leadership competencies (PLCs) in future English language teachers. The research problem lies in the absence, within local pedagogical practice, of a unified system that purposefully links forms, methods, and tools to PLC blocks. The methodology combines analysis and synthesis of scholarly literature, systematization, comparative analysis, and modelling. Six instructional forms and seven methods transformational, distributed, problem-based, cooperative, project-based, reflective, and digital teaching are systematically classified from the perspective of their contribution to PLC development. An integrative form-method-tool matrix providing optimal combinations for each competency block is proposed for the first time. The findings serve as a practical basis for the optimal selection and application of forms, methods, and tools within the integrated methodological system of the dissertation.*

Keywords: *instructional forms, teaching methods, tools, pedagogical leadership, transformational teaching, distributed leadership, reflective teaching, EFL teacher, integrative matrix.*

KIRISH

Ta'lim jarayonida shakl, metod va vositalar o'qituvchining pedagogik maqsadga erishish uchun foydalanadigan asosiy instrumental kategoriyalar hisoblanadi. Ular bir-biridan alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida ishlaydi: shakl ta'limning tashkiliy ko'rinishi, metod ta'lim jarayonini boshqarish usuli, vosita esa metodni amalga oshirishga xizmat qiladigan material va texnologik resurslar majmuidir. Pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida shakl, metod va vositalarni tanlash esa ayniqsa mas'uliyatli vazifa: noto'g'ri tanlangan metod liderlik kompetensiyalarini rivojlantirmay qo'yibgina qolmay, ularga zid ko'nikma passivlik, qaram tafakkur, tashabbuskorlikning so'nishini ham shakllantirishi mumkin. N.S.Sayidahmedov zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tahlil qilib, aynan metodning talabaning faollik darajasiga ta'siri uning liderlik potensialiga ham bevosita ta'sir qilishini asoslagan [11].

Tadqiqotning maqsadi – bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan shakl, metod va vositalar tizimini ilmiy asosda tasniflab, ularni har bir kompetensiya bloki bilan bog'lashning integratsion matritsasini ishlab chiqish; tizimning samaradorligi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: pedagogik liderlik kontekstida o'qitish shakllari olti tur bo'yicha birinchi marta tizimli tasniflanib, ularning kompetensiya bloklariga ta'siri belgilangan; yetti metod har biri uchun asosiy vositalar va rivojlanadigan kompetensiya ko'rsatkichlari aniqlangan holda tahlil qilingan; shakl-metod-vosita integratsion matritsasi olti kompetensiya bloki uchun optimal kombinatsiyalar tizimi ilk bor ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shakl, metod va vosita tushunchalarining nazariy talqinida ma'lum bir yagona yondashuv shakllanganini, biroq bu tushunchalarning pedagogik liderlik kompetensiyalari bilan bog'liq holda tizimli tasniflanmaganini ko'rsatadi.

Pedagogika fanida «shakl», «metod» va «vosita» tushunchalari ko'pincha aralashtiriladi. N.A.Muslimov ta'rifiga ko'ra: o'qitish shakli ta'lim jarayonining tashkiliy ko'rinishi, ya'ni ishtirokchilar soni va o'zaro munosabat tartibi (frontal, guruh, individual); o'qitish metodi o'qituvchi va talabaning ta'lim maqsadiga erishish uchun qo'llaydigan faoliyat usullari tizimi; o'qitish vositasi esa metodning amalga oshirilishini ta'minlaydigan barcha material, texnologik va axborot resurslaridir [8]. Pedagogik liderlik nuqtai nazaridan ushbu uchlik quyidagicha talqin etilishi lozim: shakl talabalarga qanday hollarda liderlik rolini bajarish imkoniyati berilishini belgilaydi (masalan, guruh shaklda liderlik roli tabiiy ravishda paydo bo'ladi); metod talabalarga qanday jarayon orqali liderlik kompetensiyalari shakllantirilishini belgilaydi (transformatsion metod qadriyatlar liderligini, distributsion metod tashkiliy liderlikni maqsadli rivojlantiradi); vosita esa ushbu jarayon qanday materiallar va texnologiyalar orqali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Sh.Sharipov pedagogik mahorat nuqtai nazaridan ushbu uchlikning uyg'unligi o'qituvchining professional kompetentligining ko'zgusi ekanligini ta'kidlaydi [12].

O'qituvchi liderligi muammosi so'nggi yillarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ghamrawi, Shal va Abu-Tineh o'qituvchi liderligini ta'minlashda guruh va loyihaviy shakllarning frontal shaklga nisbatan ancha samaraliroq ekanligini empirik jihatdan tasdiqlagan [4]. Wiczorek va Lear yetti domenlik o'qituvchi liderlik modelida liderlik kompetensiyalarining aksariyat domenlari guruh faoliyat va hamkorlikda eng samarali rivojlanishini ko'rsatdi [14]. OECD TALIS 2024 hisobotida ham o'qituvchi liderligini faol qo'llaydigan muassasalardagi o'qitish jarayonida guruh va loyihaviy shakllarning ancha keng qo'llanilishi aniqlandi [9]. Shu bilan birga, Afalla va Fabelico aralash (blended) shaklning distributsion pedagogik amaliyotda o'qituvchi liderlik ko'rsatkichlariga eng ko'p ijobiy hissa qo'shuvchi shakllardan biri ekanligini aniqladi [1].

Metodlar bo'yicha manbalarni tahlil qilish transformatsion (Bass, Riggio), distributsion (Spillane), hamkorlikka asoslangan (Johnson, Johnson, Smith [5]) va refleksiv (Miftah va boshqalar [6]; Musurmonova) yondashuvlarning har biri liderlik kompetensiyasining alohida bo'lagiga ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi. Shu bilan birga, ko'rib chiqilgan manbalarning hech birida shakl, metod va vosita uchlikni pedagogik liderlik kompetensiyasining barcha olti bloki bilan bir vaqtda bog'lovchi yaxlit integratsion model taklif etilmagan. Ushbu holat mazkur tadqiqotning nazariy asosini va ilmiy yangiligini belgilaydi. Tadqiqot tavsifiy-tahliliy (deskriptiv-analitik) dizayn asosida, sifat metodologiyasi doirasida olib borildi. Tadqiqotning falsafiy yo'nalishi induksion xarakterga ega: dastlab alohida manbalardagi shakl, metod va vosita ta'riflari hamda amaliy natijalari tahlil qilindi, so'ngra ular umumlashtirilib, yaxlit integratsion model shaklida taqdim etildi.

Tadqiqot uchun manba bazasi sifatida 2011–2025 yillar oralig'ida nashr etilgan 22 ta ilmiy manba jumladan, mahalliy pedagogika nazariyotchilarining monografiyalari (Tolipov, Sayidahmedov, Muslimov, Sharipov, Yo'ldoshev, Egamberdiyeva, Musurmonova) va xalqaro indekslangan jurnallarda (Frontiers in Education, MDPI Education Sciences, BMC

Psychology, Journal of Management va boshqalar) chop etilgan, asosan 2024–2025-yillarga oid empirik tadqiqotlar tanlab olindi. Manbalarni tanlash mezonlari sifatida ularning pedagogik liderlik, o'qituvchi ta'limi hamda o'qitish shakl-metod-vositalari mavzusiga bevosita aloqadorligi olindi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1) mavzuga oid manbalarni izlash va saralash; 2) har bir manbadagi shakl, metod yoki vosita ta'rifi va empirik natijalarini kontent-tahlil qilish; 3) tahlil qilingan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil usuli orqali pedagogik liderlik kompetensiyasining olti bloki (kognitiv-refleksiv, kommunikativ-interaktiv, kreativ-innovatsion, tashkiliy-boshqaruv, ijtimoiy-ma'naviy, metakognitiv) bilan bog'lash; 4) olingan natijalarni modellashirish metodi asosida shakl-metod-vosita integratsion matritsasi ko'rinishida tizimlashtirish. Tadqiqot natijalarining ishonchiligi (reliability) manbalarning janr jihatidan xilma-xilligi (monografiya, ilmiy maqola, me'yoriy-huquqiy hujjat) va ularni bir necha bosqichda qayta ko'rib chiqish orqali, aniqligi (validity) esa mahalliy va xalqaro tadqiqotlar natijalarini o'zaro triangulyatsiya qilish orqali ta'minlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan o'qitish shakllarining tasnifi

O'qitish shakllarini tanlash pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda birinchi darajali metodologik qaror hisoblanadi. Chunki shakl talabani ta'lim jarayonida egallagan ijtimoiy pozitsiyasini belgilaydi: u passiv tinglovchimi yoki aktiv ishtirokchimi, alohida mustaqillikdami yoki jamoa a'zosimi, buyruq ijrochisi yoki tashabbuskormi? Ghamrawi, Shal va Abu-Tineh o'qituvchi liderligini ta'minlashda guruh va loyihaviy shakllarning frontal shaklga nisbatan ancha samaraliroq ekanligini empirik jihatdan tasdiqladi [4].

1-jadval.

Pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan o'qitish shakllari tasnifi (muallif tahlili)

№	Shakl nomi	Xususiyati	Liderlik kompetensiyasiga ta'siri	Amalga oshirish misollari
1	Frontal shakl	Bir vaqtda barcha talabalar bilan ishlash; o'qituvchi yetakchi	Kognitiv-refleksiv blok: nazariy bilimlarni uzatish va muhokama	Ma'ruza-muloqot; liderlik nazariyasi taqdimoti; ekspert mehmon
2	Guruh shakl	Kichik guruhlar (4–6 kishi); hamkorlik; jamoaviy mas'uliyat	Tashkiliy-boshqaruv; kommunikativ; ijtimoiy-ma'naviy bloklar	Guruh loyihasi; case-study tahlili; peer-teaching
3	Juftlik shakli	Ikki talaba o'zaro o'rgatadi va baholaydi	Kommunikativ; metakognitiv bloklar	Juftlikda roli o'yin; o'zaro dars tahlili; peer-review
4	Individual shakl	Har talaba mustaqil ishlaydi; o'z sur'atida rivojlanadi	Metakognitiv; kognitiv-refleksiv bloklar	Refleksiv jurnal; portfolio; mustaqil tadqiqot
5	Loyihaviy shakl	Kengaytirilgan muddatda guruh yoki individual; aniq mahsulot	Barcha olti blok integratsiyalashgan tarzda	Semestr loyihasi; ilmiy maqola; dars ishlanmasi
6	Aralash (blended) shakl	Onlayn va offline faoliyatlar uyg'unligida	Raqamli liderlik; tashkiliy; metakognitiv bloklar	LMS + jonli dars; onlayn muhokama + seminar

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, frontal shakl kognitiv bilimlarni uzatish uchun muhim bo'lsa-da, liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda uning roli cheklangan. Eng yuqori

liderlik rivojlanish potensialiga ega shakllar guruh, loyihaviy va aralash shakllardir. Wiecezorek va Lear yetti domenlik o'qituvchi liderlik modelida liderlik kompetensiyalarining aksariyat domenlari guruh faoliyat va hamkorlikda eng samarali rivojlanishini ko'rsatdi [14]. OECD TALIS 2024 hisobotida ham o'qituvchi liderligini faol qo'llaydigan muassasalardagi o'qitish jarayonida guruh va loyihaviy shakllarning ancha keng qo'llanilishi aniqlandi [9]. Aralash (blended) shaklning pedagogik liderlik kompetensiyalariga ta'siri haqida alohida to'xtalish zarur. Bu shakl nafaqat ikki muhitni birlashtiradi, balki talabalarga raqamli muhitda ham liderlik ko'nikmalarini mashq qilish imkonini beradi: onlayn muhokamalarni boshqarish, raqamli resurslarni tashkil etish va virtual jamoada koordinatsiyani ta'minlash — bular zamonaviy pedagogik liderlikning raqamli komponentini tashkil etadi. Afalla va Fabelico distributsion pedagogik amaliyotda aralash shaklning o'qituvchi liderlik ko'rsatkichlariga eng ko'p ijobiy hissa qo'shuvchi shakllardan biri ekanligini aniqladi [1].

2. Pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar va vositalar tizimi

O'qitish metodlari pedagogik liderlik kompetensiyalari rivojlanishining eng to'g'ridan-to'g'ri va kuchli ta'sir o'tkazuvchi omili hisoblanadi. Metod talabalarga qanday faoliyat turiga jalb etilishini, bu faoliyatda qanday rol egallashini va qanday ko'nikma orttirishini belgilaydi. J.G'. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, o'qitish metodini tanlash bu pedagogning eng muhim kasbiy qarorlari qatoriga kiradi: noto'g'ri metod to'g'ri maqsadga erishishni imkonsiz qilib qo'yadi [15].

2-jadval.

Pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar va asosiy vositalar tizimi (muallif tahlili)

№	Metod nomi	Mohiyati va maqsadi	Asosiy vositalar	Rivojlanadigan liderlik bloki va ko'rsatkichi
1	Transformatsion o'qitish	O'qituvchi talabani chuqur o'zgarishga ilhomlantiradi; qadriyatlar va maqsadlar darajasida ta'sir ko'rsatadi	Dialogik suhbat; motivatsion hikoyalar; maqsadlar xaritasi; kasbiy va'da	Ijtimoiy-ma'naviy + kommunikativ: qadriyatli liderlik, ilhomlantirish qobiliyati
2	Distributsion o'qitish	Liderlik roli guruh a'zolari o'rtasida navbatma-navbat taqsimlanadi; hech kim doimiy lider emas	Rotatsion liderlik kartochkasi; guruh qarorlari jurnali; hamkorlik jadvali	Tashkiliy-boshqaruv + ijtimoiy: jamoaviy liderlik tajribasi, mas'uliyat taqsimlash
3	Muammoli o'qitish	Real yoki modellashtirilgan muammo talabani izlanishga undaydi; yechim jarayoni qimmatlidir	Muammo kartalari; manba paketlari; muhokama protokollari; yechim taqdimoti	Kognitiv-refleksiv + kreativ: tanqidiy tafakkur, original yechim topish
4	Hamkorlikka asoslangan o'qitish	Talabalar o'zaro o'rgatadi; bilim jamoaviy quriladi; barcha ishtirok etadi	Think-pair-share; jigsaw; station rotation; tengdosh muhokamasi	Kommunikativ + ijtimoiy: faol tinglovchi va notiq, guruh dinamikasini boshqarish
5	Loyihaga asoslangan o'qitish	Aniq mahsulot yaratish jarayonida barcha kompetensiyalar birgalikda faollashadi	Loyiha rejasi; milestone jadvali; taqdimot rubrikasi; jamoaviy refleksiya	Barcha olti blok: eng keng qamrovli metod
6	Refleksiv o'qitish	Talaba o'z tajribasini ongli tahlil qiladi;	Refleksiv jurnal; Gibbs refleksiya modeli; o'z-	Metakognitiv + kognitiv: o'z-o'zini boshqarish,

		tajribadan o'rganish tsikli	o'zini baholash varaqasi; portfolio	rivojlanish dinamikasini anglash
7	Raqamli o'qitish	Texnologiya vositalari orqali interaktiv, moslashuvchan va miqyoslanadigan ta'lim	LMS (Moodle, Canvas); video-dars; podcast; infografika; onlayn munozara	Innovatsion + tashkiliy: raqamli liderlik, texnologiya orqali ta'sir ko'rsatish

Transformatsion o'qitish metodi Bass va Riggio tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion liderlik nazariyasiga asoslanib qurilgan bo'lib, unda o'qituvchining ta'lim jarayonidagi transformatsion ta'siri ilhomlantirish, intellektual rag'batlantirish, shaxsiy e'tibor talabalarning liderlik motivatsiyasini va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu metod ayniqsa ingliz tili ta'limida samarali: o'qituvchi til orqali nafaqat lingvistik kompetensiya, balki fuqarolik ongini, kreativ tafakkurni va liderlik ishtiyoqini ham shakllantiradi. Distributsion o'qitish metodi Spillane tomonidan asoslangan distributsion liderlik nazariyasi asosida qurilgan bo'lib, liderlik rolini guruh a'zolari o'rtasida maqsadli taqsimlashni nazarda tutadi. EFL darsida bu metod navbatma-navbat guruh yetakchisi, muhokama moderatori, taqdimot rahbari va vazifa taqsimlovchi rollarida talabani ishtirokini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Akkaraputtapong va boshqalar bu metodning amaliyotga joriy etilishi talabalarning liderlik samaradorligi va kasbiy o'sishga intilishini statistik jihatdan sezilarli darajada oshirishini isbotladi [2].

Refleksiv o'qitish metodi metakognitiv kompetensiyani rivojlantirishning birlamchi vositasi bo'lib, talabani o'z tajribasini ongli tahlil qilishga yo'naltirilgan. Miftah va boshqalar EFL kontekstida tizimli refleksiv amaliyotning pedagogik kompetensiyaga ta'sirini o'rganib, haftalik refleksiv jurnal yozish semestr davomida kompetensiya rivojlanish tezligini 42% ga oshirishini aniqladi [6]. Musurmonova refleksiv yozuv talabalarning kreativlik va o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini mahalliy tadqiqot asosida isbotladi. Hamkorlikka asoslangan o'qitish Johnson, Johnson va Smit ishlab chiqqan besh tamoyil asosida qurilgan: ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual javobgarlik, to'g'ridan-to'g'ri muloqot, ijtimoiy ko'nikmalar va guruh jarayonini tahlil qilish [5]. Ushbu metod kommunikativ va ijtimoiy-ma'naviy liderlik bloklarini bir vaqtda rivojlantiradi. Roesminingsih va Windasari kasbiy o'rganish jamoalarida hamkorlikka asoslangan faoliyat o'qituvchilar liderlik samaradorligining eng kuchli prediktori ekanligini isbotladi [10]. Raqamli o'qitish metodlari zamonaviy pedagogik liderlikning yangi komponentini raqamli liderlik kompetensiyasini maqsadli rivojlantiradi. N.Egamberdiyeva ta'kidlaganidek, innovatsion ta'lim muhitida raqamli texnologiyalarni boshqara olish endi ixtiyoriy emas, balki zaruriydir: raqamli muhitda samarali faoliyat yurita olmaydigan o'qituvchi innovatsion liderlik rolini to'liq bajara olmaydi [3]. Anderson, Potočnik va Zhou esa innovatsion muhitda raqamli vositalarni shunchaki texnik o'zlashtirish emas, balki pedagogik maqsadga yo'naltirib qo'llash liderlik kompetensiyasining muhim ko'rsatkichi ekanligini ko'rsatdi.

3. Shakl-metod-vosita integratsion matritsasi: kompetensiya bloki optimal kombinatsiyala

Yuqorida tahlil qilingan shakllar va metodlarni pedagogik liderlik kompetensiyalarining har bir bloki bilan maqsadli bog'lash uchun muallif shakl-metod-vosita integratsion matritsasini taklif etadi. Bu matritsaning asosiy vazifasi o'qituvchi-pedagogga har bir kompetensiya bloki uchun eng samarali shakl-metod-vosita kombinatsiyasini tanlashda yo'nalish berish. Riebe va boshqalar oliy ta'limda liderlik va kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus dasturlar tahlilida aynan bunday maqsadli kombinatsiyalar eng yuqori natija berishini ko'rsatdi.

3-jadval.

Pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda shakl-metod-vosita integratsion matritsasi (muallif tahlili)

Kompetensiya bloki	Tavsiya etilgan shakl	Eng samarali metod	Asosiy vosita	Muallif izohi
Kognitiv-refleksiv	Individual + frontal	Muammoli o'qitish; refleksiv o'qitish	Yozma tahliliy ish; refleksiv jurnal	Nazariy bilimlarni amaliyotga ko'chira olish qobiliyati markazda
Kommunikativ-interaktiv	Juftlik + guruh	Hamkorlikka asoslangan; distributsion	Rolli o'yin; debate; tengdosh muhokama	Faol muloqot va boshqarish bir vaqtda rivojlanadi
Kreativ-innovatsion	Guruhiy + loyihaviy	Muammoli; loyihaga asoslangan; raqamli	Digital storytelling; maqola; innovatsion dars	Erkin ijodiy muhit yaratish eng muhim shart
Tashkiliy-boshqaruv	Guruhiy + loyihaviy	Distributsion; loyihaga asoslangan	Rotatsion liderlik; loyiha rejasi; Gantt jadvali	Talaba turli liderlik rollarini bajarishi kerak
Ijtimoiy-ma'naviy	Frontal + guruh	Transformatsion; hamkorlikka asoslangan	Etik dilemma; ijtimoiy loyiha; qadriyat muhokamasi	Axloqiy pozitsiyani shakllantirish vaqt talab etadi
Metakognitiv	Individual + aralash	Refleksiv; raqamli	Portfolio; o'z-o'zini baholash; rivojlanish xaritasi	Muntazamlik va izchillik bu blok uchun asosiy tamoyil

Integratsion matritsa quyidagi uchta muhim tamoyilga asoslanadi. Birinchi tamoyil moslashuvchanlik: matritsada kombinatsiyalar tavsiya sifatida, qoida sifatida emas, talqin etilishi lozim. Real o'quv jarayonida talabalar guruhi, muassasa resurslari va vaqt cheklovlari kombinatsiyani moslashtirishni taqozo etishi mumkin. Ikkinchi tamoyil izchillik: semestr davomida barcha olti kompetensiya bloki bir-birini to'ldiradigan tarzda ketma-ket qamrab olinishi kerak; bitta blokka haddan ortiq e'tibor boshqalarning zaiflanishiga olib keladi. Uchinchi tamoyil progressivlik: semestr boshida oddiy shakllar va metodlardan boshlanib, asta-sekin murakkab, ko'p bosqichli kombinatsiyalarga o'tilishi lozim. Bu progressivlik talabada liderlik rolini bosqichma-bosqich o'zlashtirishning psixologik xavfsizligini ta'minlaydi. Mulyadi va boshqalar liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda progressiv murakkablik tamoyilini qo'llash statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori natijalar berishini ko'rsatdi [7]. O'zbekiston kontekstida ushbu matritsani qo'llashda ikki tomonlama vaziyatni hisobga olish zarur. Mavjud imkoniyatlar: «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»da belgilangan innovatsion ta'lim talablari ushbu matritsani amaliyotga joriy etish uchun normativ-huquqiy asos va institutsional qo'llab-quvvatlash imkonini yaratmoqda.

XULOSA

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun shakl, metod va vositalarni tanlash tasodifiy emas, balki maqsadga muvofiq va tizimli bo'lishi lozim. Shakl talabaning liderlik roli uchun imkoniyat yaratadi, metod bu imkoniyatni yo'naltirilgan faoliyatga aylantiradi, vosita esa faoliyatni konkret va o'lchanadigan qiladi. Ushbu uchlikning uyg'unligi pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik kafolatidir. Eng samarali natija ushbu metodlarni maqsadga muvofiq kombinatsiyada va bosqichli mazmun tizimi doirasida qo'llash orqali erishiladi. Bitta metod barcha kompetensiya bloklarini bir vaqtda rivojlantira olmaydi bu esa metodlar kombinatsiyasining zarurligi va integratsion yondashuvning asosiligi haqidagi xulosani tasdiqlaydi. Muallif tomonidan taklif etilgan shakl-metod-vosita integratsion matritsasi o'qituvchi-pedagogga olti kompetensiya blokining har biri uchun optimal kombinatsiya tanlashda yo'nalish beruvchi amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Matritsada uchta tamoyil

moslashuvchanlik, izchillik va progressivlik O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga moslashtirilib qo'llanilishi zarur.

Mazkur maqolada ishlab chiqilgan shakllar tasnifi, metodlar va vositalar tizimi hamda integratsion matritsa birgalikda dissertatsiyaning integrallashgan metodik tizimining shakl-metod-vosita komponentini to'liq tashkil etadi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1) oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili yo'nalishi o'quv dasturlariga shakl-metod-vosita integratsion matritsasini metodik qo'llanma sifatida joriy etish;

2) semestr davomida o'qitish shakl va metodlarini progressivlik tamoyiliga asoslanib rejalashtirish, ya'ni oddiy (frontal, individual) shakllardan murakkab (guruhviy, loyihaviy, aralash) shakllarga bosqichma-bosqich o'tish;

3) raqamli vositalar barcha muassasalarda bir xil darajada mavjud emasligini hisobga olib, aralash o'qitish metodlari uchun oflayn alternativ vositalarni ham tayyorlash;

4) taklif etilgan integratsion matritsani keyingi tadqiqotlarda eksperimental sharoitda sinovdan o'tkazish va uning real ta'lim natijalariga ta'sirini statistik jihatdan tekshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Afalla B., Fabelico F. Enhancing Teacher Educators' Leadership Through Distributed Pedagogical Practice // Education Sciences. - 2024.

2. Akkaraputtapong P., Nguyen H.T.M., Ngo H.T. A teacher leadership model validation for in-service teachers // Frontiers in Education. - 2025.

3. Egamberdiyeva N. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-innovatsion tayyorgarligi. - Toshkent: TDPU, 2019. - 208 b.

4. Ghamrawi N., Shal T., Abu-Tineh A. Unleashing the potential of teacher leadership for Education for Sustainable Development // Frontiers in Education. - 2025.

5. Johnson D.W., Johnson R.T., Smith K.A. Cooperative Learning: Improving University Instruction by Basing Practice on Validated Theory // Journal on Excellence in College Teaching. - 2014. - Vol. 25, № 3-4. - P. 85-118.

6. Miftah M.Z. et al. Exploring Critical Reflection to Develop Pedagogical Competence for Indonesian EFL Preservice Teachers // Education and Self Development. - 2025. - Vol. 20, № 1. - P. 27-41. - DOI: 10.26907/esd.20.1.03.

7. Mulyadi M. et al. The relationship between principals' pedagogical leadership and teachers' job performance // BMC Psychology. - 2025. - Vol. 13. - Art. 89.

8. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. - 210 b.

9. OECD. TALIS 2024 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. - Paris: OECD Publishing, 2025. - DOI: 10.1787/90df6235-en.

10. Roesminingsih E., Windasari W. The impact of transformational leadership on teacher performance via professional learning communities // Journal of Pedagogical Research. - 2025. - Vol. 9, № 3. - P. 312-326.

11. Sayidahmedov N.S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: O'qituvchi, 2016. - 320 b.

12. Sharipov Sh. Pedagogik mahorat. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. - 392 b.

13. Tolipov O'.Q. Pedagogika: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. - 480 b.

14. Wieczorek D., Lear J. A teacher leadership model: seven domains of leadership practice // Frontiers in Education. - 2025.